

X.Ibraimov, A.Jumayev, S.Sharipova

IJTIMOIY PEDAGOGIKA

IJTIMOIY PEDAGOGIKA



X.Ibraimov, A.Jumayev, S.Sharipova

IJTIMOIY PEDAGOGIKA



UO'K: 37.01

KBK: 74.00

I-98

Ijtimoiy pedagogika [Matn]: darslik / X.Ibraimov, A.Jumayev,
S.Sharipova. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 458 b.

**Akademik, pedagogika fanlari doktori R.H.Djurayevning
umumiy tahriri ostida.**

Taqrizchilar:

Sh.Q.Mardonov – pedagogika fanlari doktori, professor

B.X.Xodjayev – pedagogika fanlari doktori, professor

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
Kengashining 2025-yil 23-maydagi 6-sonli yig'ilishida nashrga tavsiya
etilgan.

ISBN 978-9910-06-826-3

© Ibraimov X., Jumayev A., Sharipova S., 2025.

© "Bookmany print" nashriyoti, 2025.

KIRISH

Bugungi kunda global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanib borayotgani XXI asr o'qituvchisidan yuqori pedagogik mahorat, kuchli iroda, chuqur bilim va tafakkur, o'z fanini mukammal egallaganlik hamda siyosiy savodxonlikni talab qiladi. O'qituvchi zamonaviy ta'lim shakllarini to'g'ri tanlay olishi, shuningdek, barkamol shaxs tarbiyasi nazariyasini yangi g'oyalar bilan boyitib borishni yaxshi bilishi zarur.

Chunki har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash murakkab jarayon bo'lib, qadimdan jamiyatning eng bilimdon va tajribali insonlari ushbu ishga jalb qilingan. Bu esa yosh avlod tarbiyasi nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham beqiyos ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'qituvchilar ilg'or pedagogik tajribalarni chuqur o'rganib, o'qitish jarayonida qo'llaniladigan qonuniyatlarni va prinsiplarni ijodkorlik bilan qo'llashlari, ilmiy g'oya va nazariyalarni amaliyotga samarali tatbiq etishlari muhimdir.

Bugungi kunda ijtimoiy pedagogikaga bo'lgan qiziqish jamiyat taraqqiyoti va davlatning ijtimoiy ehtiyojlari asosida shakllanmoqda. Hozirda respublikamizda ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Insonparvarlikka asoslangan ijtimoiy tuzilmalarni barpo etish, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi yangi tamoyillar, mafkuraviy va axloqiy o'zgarishlar natijasida bir qator ijtimoiy muammolar – ishsizlik, moddiy qiyinchiliklar, bolalarning qarovsiz qolishi, oilalarning buzilishi, jinoyatchilik, giyohvandlik, fohishalik kabi holatlar yuzaga chiqmoqda.

Mazkur muammolarni hal qilish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur. Eng avvalo, bolalar, keyinchalik esa kattalar ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lib qolishmoqda. Aynan shunday sharoitda ijtimoiy pedagog – shaxsning jamiyatga moslashuvi va rivojlanishida ko'mak beruvchi mutaxassis sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Muhtojlarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatish insoniylik, huquq va erkinliklarga asoslangan demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashib bormoqda.

1-MODUL. IJTIMOY PEDAGOGIKANING NAZARIY ASOSLARI

1-MAVZU: IJTIMOY PEDAGOGIKA FANI JAMIYAT RIVOJINING ASOSI SIFATIDA

Tayanch soʻzlar: ijtimoiy pedagogika, ijtimoiylashuv, obʻjekt, predmet, falsafa, jamiyat, solsiyum, shaxs, ijtimoiy pedagogikaga ehtiyoj, sotsiologiya, etnografiya, etnopsixologiya, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiylashuv, kategoriya, ijtimoiy taʼlim, ijtimoiy pedagogik faoliyat, metod.

Mavzuning qisqacha mazmuni: Mazkur mavzu orqali talabalar ijtimoiy pedagogika fanining mohiyati, vazifalari va jamiyatdagi oʻrni bilan tanishadilar. Ular ijtimoiy muhit, shaxs va jamiyat oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni tahlil qilishni, ijtimoiy muammolarning yechimi yoʻlida pedagogik yondashuvlarni qoʻllashni oʻrganadilar.

Ijtimoiy pedagogikaning fanlar tizimidagi oʻrni

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach milliy tarbiya va taʼlim sohasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish uchun zamin yaratdi. Zotan, mustaqillik fikr - mulohazalarda ozod, oʻz haq - huquqini yaxshi taniyagan, izlanuvchan, zamonaviy bilimga ega, vatanga, ona zaminimizga sadoqatli, boqimandalikning har qanday koʻrinishlarini oʻzi uchun or deb biladigan, oʻz kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, oʻz shaxsiy manfaatlarini xalq, vatan manfaatlari bilan uygʻun holda koʻradigan barkamol insonni tarbiyalashni talab etadi.

Respublikamiz Sobiq Ittifoq tarkibida davrida uning taʼlim tizimi markazlashtirilgan, milliy mintaliteti eʼtiborga olinmagan, oʻta mafkuralashgan, zarur kasbiy yoʻnaltirishga eʼtibor berilmagan edi. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq mavjud taʼlim sohasidagi ijobiy natijalarni saqlab qolish va oʻtmishdan qolgan merosning salbiy jihatlarni hamda oʻtish davri bilan bogʻliq qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun bosqichma - bosqichlik asosida jiddiy choralar koʻrish zarur edi.

Shu bilan birga, oʻqituvchi - Oʻzbekistonning porloq kelajagini yaratishda muhim rol oʻynaydigan, buyuk allomalarning ishini davom ettiruvchi shaxsdir. Shu sababli, zamonaviy oʻqituvchi oʻz bilim va fazilatlarini bilan oʻquvchilar, ota-onalar va jamiyat oldida yuksak obroʻga ega. Bu oʻqituvchi barkamol avlodni tarbiyalashda muhim rol oʻynaydi. U nafaqat maʼnaviy-axloqiy madaniyati bilan boshqalarga oʻrnak boʻlishi, balki oʻzining pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi lozim. Shuningdek, yetuk mutaxassis sifatida malakali kadrlar tayyorlash jarayonida faol ishtirok etishi zarur.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mustaqillikning 30 yilligiga bagʻishlangan nutqida Harakatlar strategiyasi doirasida mamlakatimizda barcha sohalarida keng koʻlamli oʻzgarishlar amalga oshirilayotganini alohida taʼkidladi. Ushbu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatning rivojlangan davlatlar qatoriga qoʻshilishi, avvalo, ilm-fan va taʼlim-tarbiya sohasining yuksalishiga bogʻliq ekanini uqtirdi. "Yangi Oʻzbekistonni barpo etish yoʻlida qilinayotgan mashaqqatli, ammo sharaflı mehnatingizni qadrlaymiz. Siz, ustozlar uchun davlatimiz barcha imkoniyatlarini safarbar etishga tayyor", - degan edi Prezident.

Bu soʻzlar oʻqituvchilarga boʻlgan katta ishonch va masʼuliyatni anglatadi. Demak, har bir pedagogdan zamon talablari darajasida bilimdonlik, doimiy rivojlanish, xalqaro standartlarga mos malaka va chuqur pedagogik mahorat talab qilinadi.

"Ijtimoiy pedagogika" fani esa talabalarda umumiy pedagogik bilimlarni kengaytirish bilan birga, ularni jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda, maʼnaviy omillar, fanning obyekti va predmeti, boshqa fanlar bilan aloqadorlik, asosiy tushunchalari hamda ijtimoiy pedagogik kasbining oʻziga xos jihatlari haqida chuqur fikrlashga undaydi.

Internet saytlari:

1. www.pedagog.uz.
2. www.ziyounet.uz
2. eduportal.uz.
3. www.tdpu.uz.
4. tdpu-INTRANET.Ped
5. Lexuz.online

MUNDARIJA

Kirish	3
I-MODUL. IJTIMOY PEDAGOGIKANING NAZARIY ASOSLARI	
1. Ijtimoiy pedagogika fani jamiyat rivojining asosi sifatida.	5
2. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning paydo bo'lishi madaniy-tarixiy, ijtimoiy-huquqiy shart-sharoitlari.	34
3. O'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limotida ijtimoiy-pedagogik g'oyalar.	57
4. Sharq mutafakkirlari asarlarida shaxs ijtimoiylashuvi masalalarining yoritilishi.	80
5. Xorijda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi.	122
6. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi.	135
7. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi ijtimoiy-pedagogik dolzarb muammolar.	150
8. Ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslari.	164
9. Ijtimoiy pedagogika fanining kategoriyalari va tamoyillari.	175
10. Ijtimoiylashuv - ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida. Ijtimoiylashuv omillari va vositalari.	194
II - MODUL. IJTIMOY PEDAGOGIKANING AMALIY ASOSLARI	
11. Ijtimoiy tarbiya.	204
12. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati.	223
13. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatda texnologiyalar.	231
14. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tashkil etiladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat.	246
15. Umumta'lim maktablari o'quvchi-qizlarining ijtimoiy faolligini oshirish usullari va metodlari.	262
16. Ijtimoiy pedagogning maktab yoshidagi bolalar bilan ish yuritishi.	277
17. Mehribonlik uylaridagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat.	287
18. O'zbekistonda oilaviy bolalar uyini tashkil etish tartibi va shartlari.	301
19. Ijtimoiy pedagogikada vasiylik va homiylik	312
20. O'zbekistonda alohida yordamga muhtoj bolalarga ijtimoiy	329

pedagogik yordam tashkil etish.	
21. O'quvchi yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.	342
22. Ijtimoiy pedagogikada meyardan og'ishish.	349
23. Deviant xulq-ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.	362
24. Spiritli ichimliklar iste'mol qilishga moyil o'smirlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.	370
25. Giyohvandlik deviant xulq shakli sifatida.	379
26. Ijtimoiy pedagogning rehabilitatsion xizmati modeli va mexanizmi.	395
27. Oila, mahalla va ta'lim muassasasi ijtimoiy - pedagogik hamkorligi.	403
28. Oila. Ijtimoiy pedagogikada oila tiplari va turlari.	422
29. Noto'liq oilaning ijtimoiy-pedagogik muammolari.	429
Asosiy tushunchalar lug'ati	444
Foydalanilgan adabiyotlar	453

X.Ibraimov, A.Jumayev, S.Sharipova

IJTIMOY PEDAGOGIKA

Darslik

Darslik mualliflarning tahririda taqdim etilgan.

Darslikda keltirilgan faktlar, atoqli otlar va boshqa ma'lumotlarning aniqligiga hamda imloviy xatolar uchun javobgarlik mualliflarning zimmasidadir.



4136

“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 18.11.2025.

“Times New Roman” garnituras. Qog'oz bichimi: 60x84 1/16

Nashriyot bosma tabog'i 26,1. Shartli bosma taboq 26,8.

Adadi 100 nusxa. Ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

t.me/Bookmanyprint +998 99 180 97 10